



## XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI ANGOR TUMAN KENGASHINING QARORI

190200, Angor q, Al-Hakim at-Termiziy ko'chasi 58-uy, tel.: 0(376) 31-22-012, faks: 0(376) 31-22-012

2023 - yil 11 - may

VI-61-93-8-109-K/23

Angor tuman hokimligi

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagи “Yetim bolalar va ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5215-sonli qaroriga asosan “Mehr daftari”ga kiritilgan bolalar bilan ishslash bo‘yicha tuman hokimligi Bolalarni himoya qilish sho‘basi mudirining hisoboti to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagи “Yetim bolalar va ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5215-sonli Qarori ijrosi bo‘yicha tuman hokimligi Bolalarni himoya qilish sho‘basi mudiri B.Shamuradovning tumanda “Mehr daftari” bo‘yicha amalga oshirilgan ishlari to‘g‘risidagi hisoboti xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi majlisida eshitilganligi va ko‘rib chiqilganligini hamda bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq, xalq deputatlari Angor tuman Kengashi

### **QAROR QILADI:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagи “Yetim bolalar va ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5215-sonli Qarori ijrosi bo‘yicha tuman hokimligi Bolalarni himoya qilish sho‘basi mudiri B.Shamuradovning tumanda “Mehr daftari” bo‘yicha amalga oshirilgan ishlari to‘g‘risidagi hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagи “Yetim bolalar va ota-onan qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5215-sonli Qarori ijrosi bo‘yicha tuman Bolalarni himoya qilish sho‘ba mudiri B.Shamuradovning 2023-yil 1-choragi davomida tumanda “Mehr daftari” bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlari sessiyada ishtiroy etayotgan deputatlarning takliflariga asosan, “Qoniqarli” deb hisoblansin.

### **3. Tuman hokimligi Bolalarni himoya qilish sho'basi mudiri (B.Shamuradov)ga:**

- har chorak yakuni bo'yicha xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot taqdim etib borish;

- yetim bolalar va ota-onan qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni moddiy, huquqiy va psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash;

- yetim bolalar va ota-onan qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar uchun ma'naviy-ma'rifiy va madaniy tadbirlarni tashkil etish;

- zamonaviy usul va shakllardan foydalangan holda jismonan sog'lom, ma'naviy yetuk va dunyoqarashi keng yoshlarni shakllantirish, yetim bolalar va ota-onan qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni sport turlariga qiziqtirish va jalb etish;

- bolalarning ota-onan qaramog'idan mahrum bo'lishining sabablarini o'rganish va aniqlangan muammolarni bartaraf etish;

- o'quv-tarbiya muassasalarida sifatli ta'lif va tarbiya jarayonini yo'lda qo'yishga, ularning maishiy shart-sharoitlari yaxshilanishiga, shuningdek, tarbiyalanuvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish hamda ularning intellektual, jismoniy va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga ko'maklashish;

- o'quv-tarbiya muassasalarida tarbiyalanayotgan, vasiylikka, homiylikka va oilaga tarbiyaga olingan (patronat) qizlarni "Mehr daftari"ga kiritib, ularni qiynayotgan masalalarni joyida hal qilishga hamda o'quv-tarbiya muassasalaridan keyingi hayotida o'z o'rnini topishiga har tomonlama ko'maklashish vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman hokimligi matbuot xizmati, "Angor yog'dusi" gazetasi tahririyati (G.Jumayeva)ga sohada amalga oshirilayotgan ishlarni ommaviy axborot vositalarida va internet tarmoqlarida keng yoritib borish tavsiya yetilsin.

5. Amalga oshirilayotgan ishlar yuzasidan mutasaddi rahbarlar **har chorak yakuni** bilan xalq deputatlari tuman Kengashiga yozma axborot kiritib borsin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Angor tuman Kengashining Mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (R.Kabulova) zimmasiga yuklansin.

7. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

**Kengash raisi**



**Q.Mardonov**